



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI




**"BOSHLANG'ICH TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL MASALALARI:
MUAMMO, TADQIQOT" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI TO'PLAMI**
2023-yil 23-noyabr, Navoiy

**COLLECTION OF MATERIALS THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE ON THE THEME "GLOBAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION
DEVELOPMENT: PROBLEM, RESEARCH"**

November 23, 2023, Navoi

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ «ГЛОБАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ»
23 ноября 2023 года, Навои**



**Navoiy shahri,
23.11.2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**"BOSHLANG'ICH TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL
MASALALARI: MUAMMO, TADQIQOT" MAVZUSIDAGI XALQARO
ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO'PLAMI**
2023-yil 23-noyabr, Navoiy

I qism

**COLLECTION OF MATERIALS THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC –
PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME
“GLOBAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION DEVELOPMENT:
PROBLEM, RESEARCH”
November 23, 2023, Navoi**

Part I

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ
«ГЛОБАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ»
23 ноября 2023 г. Навои**

Tom I



**Navoiy shahri,
23.11.2023**

jahoning ko‘plab shaharlardan Samarcandga hunarmandlar, ollm-u fozillar, san’atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm-ma’rifat, madaniyat, qurilish jahbalarida keng foydalanildi. Samarcand va Hirotda madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o‘rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyat, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa’diy meroslarini, ularning ta’lim-tarbiya, kasb-hunar bo‘yicha qarashlari shuningdek, yunon-rim madaniyatini o‘rganishga havas kuchaydi [1: 49].

Shuni ta’kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi. Ayniqsa, Samarcand va Hirotda shaharlari madaniyat, ilm-ma’rifat markaziga aylandi. Amir Temur sultanatni bino qilish va uni mustahkamlash uchun juda katta xizmat qildi. Ana shunday buyuk xizmatlardan eng muhimi mamlakatda ta’lim tizimini rivojlantirish sohasiga qaratilganligi edi. Chunki uning e’tiqodiga ko‘ra bilimdon va tadbirdor insongina mamlakatning rivojlanishiga hissa qo‘sha oladi. Shuning uchun ham sohibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirdor kishilarni tarbiyalashga katta e’tibor beradi. Bu borada ta’lim tiziminining o‘ziga xos o‘rni bo‘lishi kerakligini anglagan holda, maktab va madrasalar qudiradi. XV-XVI asrlarga kelib, qadimiy Turkiston jahonga qozizoda Rumiy, Ulug‘bek, Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Abulg‘oziy Bahodirxon singari allomalarini voyaga yetkazdi. Bu davorda Markaziy Osiyo shaharlarida qator madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek xalqi va uning madaniy-ma’rifiy taraqqiyoti asrlar davomida misli ko‘rilmagan darajada rivojlangan. Qolaversa, uning axloq-odobga, kasb-hunarga oid qarashlari pedagogika fanlari bo‘yicha ta’limoti butun jahonga o‘rnak bo‘larli ma’no va mazmun kasb etgan.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. A. I. Avazboyev «Kasbiy pedagogika» o‘quv qo‘llanma T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU 2014-yil 320 bet
2. G. O. Ochilova «Kasbiy kompetentlik» o‘quv qo‘llanma T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021-yil 228 bet
3. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova “Kasbiy ta’lim metodikasi” darslik Buxoro “Durdona” 2020-yil 496 bet.
4. I. M. Sirojiddinova “Kasbiy ta’lim metodikasi” o‘quv qo‘llanma Andijon “Noshirlik” 2021-yil 220 bet.
5. D. Elmuratova, N. Misirova “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv qo‘llanma “Guliston” 2021-yil 161 bet.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA O‘RGATISH.

M.A.Jumayeva

Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti Buxoro, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual salohiyatiga, bo‘lajak mutaxassislarini innovatsion faoliyatga yo‘naltirish,zamonaviy va sifatlari ta’limiga bo‘lgan motivatsiyani faollashtirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: Innovatsion faoliyat,kreyativ yondashuv,ko`nikma,malaka.

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКИХ ПОДХОДОВ.

Аннотация: В данной статье речь идет о направлении будущих учителей на раскрытие их интеллектуального потенциала, будущих специалистов на инновационную деятельность, активизации мотивации к современному и качественному образованию.

Ключевые слова: Инновационная деятельность, творческий подход, мастерство, квалификация.

TRAINING FUTURE TEACHERS OF INNOVATION ACTIVITIES BASED ON CREATIVE APPROACHES.

Annotation: In this article, it is thought about directing future teachers to their intellectual potential, future specialists to innovative activities, activating motivation for modern and quality education.

Key words: Innovative activity, creative approach, skill, qualification.

Dunyoda ijtimoiy sohani rivojlantirish va bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishga oid qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, pedagog-kadrlar innovatsion faoliyatining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, bu jarayonga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirish va metodologiyani ishlab chiqishni talab etmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ilg‘or ta’lim texnologiyalarini qo‘llash asosida innovatsion faoliyatning samaradorligini oshirishga,kompetentsiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning imkoniyatlarini, metodologik asoslarini tadqiq etish zaruriyatni tobora ortib bormoqda.O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan jahon intellektual salohiyatiga to‘laqonli qo‘shila oladigan mutaxassislarini tayyorlashga bog‘liq. Ushbu vazifalarni amalga oshirish esa bo‘lajak o‘qituvchilarni va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etib, uning samarali usullaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga qiziqtirish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yo‘naltirishdan iboratdir. Ushbu muhim vazifalarni amalga oshirishning yana bir ahamiyatlari tomoni shundaki, hozirda ilm-fan va texnika-texnologiyalar kun sayin, soat sayin takomillashib, rivojlanib bormoqda, natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug‘ilmoqda.Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarini

innovatsion faoliyatga yo'naltirish,zamonaviy va sifatli ta'limga bo'lgan motivatsiyani faollashtirish, oliv ta'limga innovatsion faoliyatning o'rni va rolini kuchaytirish, ta'lim islohotlarini amalga oshirish jarayonini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos holda prognoz qilish dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ilmiy-tadqiqotchilik, innovatsion faoliyatga yo'naltirishga qaratilgan zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlar yaratish "XXI asr – intellektual asr" da qadriyatlар ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga oлган holda Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar qilib shakllantirish hozirda dolzarblik kasb etmoqda va u ham milliy, ham umumbashariy mazmun-mohiyatga ega bo'lib, uning ijrosi insoniyatni ma'naviyat va ma'rifatga,yuksak barkamollikka, eзgulikka olib boradi. Shu sababli barkamol avlodni tarbiyalash va ularni davr talabiga mos qilib shakllantirish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo'lib kelgan.Jumladan, bunday yuksak orzu-istaklar Abu Nasr Farobiyning fozillar jamiyati ("Fozil odamlar shahri"), Yusuf Xos Hojibning "Saodatga eltuvchi bilim", shuningdek, At-Termiziyy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Hoja Ahror Valiy, Az-Zamahshariy, Najmuddin Kubro, Ya'qub Charxiy, Xoja Mahmud Porso, Kosoniy, Xoja Yusuf Hamadoniy,Abdulxoliq G'ijduvoniy kabilarning ilmi hadis yo'nalishidagi ta'limotlari va Al-Xorazmiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlari (algoritm asoschisi), Ibn Sino tibbiyoti, Abu Rayhon Beruniyning qomusiy ilmi va ijtimoiy axloqiy qarashlari, Amir Temur davlatchiligi va tuzuklari hamda uning adolatli ijtimoiy-tashkilotchilik ishlari, Mirzo Ulugbekning koinot ta'limini ommaviy olib borish (dorilfunun tashkil etish) haqidagi ta'limoti, Mirzo Boburning ta'limni isloh qilish sohasidagi "Xatti Boburiy", Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va ma'rifatga chaqiruvchi ta'limotlari, Ma'mun akademiyasining "Donishmandlik uyi"("Bayt-ul hikmat")dagi ta'limotlarda teran ifoda qilingan. Hozirda bunday boy o'tmish merosga ega bo'lgan ajdodlar orzusiga erishildi va u respublikamiz ahlini turli jabhalarda tub burilishlar qilishga,islohotlar qilishga ilhomlantirdi.Jamiyatimiz kelajagi bo'lajak mutaxassislarini zamon talablarini hisobga oлган innovatsion faoliyatga yo'naltirigan holda raqobatdosh qilib tayyorlashni talab etadi.O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmsandan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi. A.N. Leont'ev: «Dunyonni idrok qilishning birinchi sharti - faoliyat, ikkinchi sharti – tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotiy kurashning asosiy sharti», – deb ta'kidlaydi. Ya'ni faoliyat ijtimoiy hodisa bo'lib, shaxsiy, guruhiy,milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsadlar sari yo'naltirilgan harakat hisoblanadi. Inson faoliyatni o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan,ijodiy, ilmiy, pedagogik, tadbirkorlik, o'quv-biluv, boshqaruv va innovatsion faoliyatlar kabi. Barcha faoliyatlarining mazmuni, shakli, vositalari o'zgarib borishi natijasida insonning axloqiy madaniyati takomillashib boradi.Innovatsion muhit - pedagogik jamoda, umuman oliy ta'lim muassasida shunday ijodiy, samimi do'stona sharoit tug'diriladiki, unda o'qituvchi o'zini erkin xis qiladi, jamoda ichki intilish moddiy-ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. U muhitda o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga,intilishga tayyor bo'ladi.

Innovatsion faoliyatning maqsadi sarflangan bilim, ko'nikma va malakadan eng yuqori natija olishdan iborat bo'lib, boshqa innovatsiyalardan farqli, innovatsion boshqarish va nazorat qilishdagi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.Ta'lim jarayonidagi innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo'ldi. Innovatsion pedagogik faoliyatda doimiy uzlucksiz ravishda yangiliklar asosida ishslash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Pedagogik innovatsiyalarning vujudga kelish holatlari quyidagilar:

- pedagogik tizim ichidagi komponentlar o'zgarganda;
- yangi tipdag'i o'quv yurtlari ochilganda;
- o'qituvchi faoliyatni yangilanib, o'zgarganda;
- talabaning faolligi, qiziqishi, mas'uliyati, motivatsiyasi oshganda;
- ta'lim mazmuni yangilanganda;
- ta'limda yangi metod, shakl va vositalar qo'llanganda;
- ta'lim jarayoni yangicha boshqarilganda;
- ta'lim sifat va samaradorligini oldindan maqsad qilib olinganda.

Pedagogik innovatika – bu pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, pirovardida uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot. Yangilikni yaratish qonuniyatlarini o'zlashtirish va targ'ibotini o'rganadigan fan.Zamonaviy ta'limda pedagogik innovatikaning o'rni va roli katta. Bunga sabab ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab muntazam rivojlanib, takomillashib boruvchi dinamik tizimdir. Ushbu rivojlanish va takomillashish esa ta'lim jarayonini zamon talablarini hisobga oлган holda doimo yangilab borishni talab etadi.Ular asosida ta'limni boshqarishdek muhim bosqichga o'tiladi.

Innovatsion jarayon – bu ko'rib chiqilayotgan ijodiy jarayondagi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga,ya'ni amaliyotga joriy etish va ommalashtirish faoliyati bilan bog'liq bo'ladi.Yangi asr bo'sag'asida fanda yangi yo'nalishlar, yangicha yondashuvlar paydo bo'ldi. Ushbu dolzarb masalalarning dolzarbliji O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022— 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" dagi bandlarda ham yaqqol aks etgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda".

Bugungi tezkor o‘zgarishlarga boy bo‘lgan Yangi O‘zbekistonni yaratish bosqichida har bir shaxsdan o‘z ichki imkoniyatlaridan yuqori saviyada qo‘llash, shu bilimlar zaxirasi bilan yaqinlari va hamkasblari ruhiy dunyosini boshqarishni talab qilmoqda. Aynan mana shunday talablarga mos faoliyat yuritish uchun esa inson o‘zidagi tug‘ma imkoniyatlarni vaziyatga moslashtira olishi,xolislik bilan faoliyat yuritishi lozim bo‘ladi.Bo‘lajak o‘qituvchilarini kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish uzoq muddatli, murakkab jarayon bo‘lib, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi umumiy pedagogik faoliyatni mazmun va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, yuqori samaradorlikka ega bo‘lish va keng ko‘lamli axborotlardan foydalanishdan iborat.Ta’limni innovatsion rivojlanish istiqbollari quyidagilardan iborat:

Individuallashtirish;
Ixtisoslashtirish;
Tabaqaqlashtirish;
Integratsiyalash;
Ko‘p variativlik;
Axborotlashtirish;
Uzviylik – uzlusizlik;
Insonparvarlashtirish;
Qo‘srimcha ta’lim;
Inklyuziv ta’lim;
Chuqurlashtirish;
Modernizatsiyalash;
Unifikatsiyalash;
Standartlarni takomillashtirish.

Ushbu vazifalar quyidagicha amalga oshiriladi:- bo‘lajak o‘qituvchilarining o‘zlashtirayotgan nazariy bilimlarini nafaqat pedagog orqali,balki tashqi manbalardan ola bilishi, keng miqyosda kreativ yondashuv va tafakkur yurita olishga o‘rgatish lozim, bu bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion faoliyatini namoyon etishi uchun optimal shart-sharoitlari modellarini yuzaga keltiradi;

- oliv ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlarini keng ko‘lamda olib borishning tashkil etilishini yo‘lga qo‘yish. Bu ta’lim-tarbiya jarayonida insoniy, moliviyiy, moddiy-texnik resurslarni optimal ishlatishtga imkon beradi;

- o‘qituvchilarning yangilikka intiluvchanligi, ularni izlab topishga, yaratishga, ta’limga qo‘llash ko‘nikma, malakalarini shakllanadi;

- bo‘lajak mutaxassislarda uzlusiz ijodkorlik pozitsiyasini saqlab qolish ko‘nikmasi shakllanadi;

- oliv ta’imda innovatsion faoliyatda ilg‘or texnologiyalar, interfaol ta’limni qo‘llash muhitida ish yuritadi;

- talabalarning o‘quv jarayonini harakatga keltiruvchi faol, qiziquvchan, mas‘uliyatni his qilish asosida motivatsiyasi oshadi.

- oliv ta’limda Davlat standartlarini to‘la o‘zlashtirishi kafolatlanadi. U o‘z navbatida ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarini kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonini ushbu omillar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarini kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida o‘qituvchidan faqatgina olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashgina emas,balki ularni doimiy takomillashtirib borish ham talab etiladi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda o‘qitishning metod va vositalarini tanlash tizimi ham o‘zgaradi.

Hozirgi kunda «Kim yaxshi kasb egasi bo‘la oladi, ideal kasb egasi o‘zi qanday bo‘lishi kerak?» degan savollarga javob topish emas, balki professional o‘sish va kasbining ustasi bo‘lib shakllanishning amaliy texnologik yo‘llarini aniq ko‘rsatib berish lozim. Bo‘lajak o‘qituvchi sifatli kadr tayyorlash jarayoniga mas‘ul bo‘lib, uning ma‘naviy qiyofasi zamon talablari darajasida, jahon andozalariga mos ravishda shakllanishi hamda rivojlanib borishi, ta’lim jarayonini optimal darajada tashkil etishi mamlakatimiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Pedagoglarni mutaxassisligi bo‘yicha nnovatsion faoliyatini takomillashtirishda pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etib, tartibga solish, kasbiy faoliyatga erishishning hozirgi zamon nuqtai nazaridan o‘qituvchining kreativ, intellektual, motivatsion, shaxsiy, irodaviy,axloqiy xususiyatlarini rivojlantirish zarur.Ta’lim jarayonida kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayoni ko‘rsatilgan bo‘lib, ular turli ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarga asoslanadi Bo‘lajak o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri yangi ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda ularni aqliy-ijodiy faoliyatga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.Bunga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchilar oliv o‘quv yurtiga kirgan vaqtidan boshlaboq innovatsion jarayonlarga kirib borishi, ta’lim tizimiga ijodiy yondashishi kerak, innovatsion jarayon orqali bo‘lajak mutaxassislarda kreativ yondashuvlar asosida innovatsion resursni hosil qilish,innovatsion salohiyatni shakllantirish va innovatsion faoliyatni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish samarali kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz.
3. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilarni tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005. – 157 b.

**O'QITUVCHILARDA REFLEKSIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI TASHKIL
ETISH FUNKSIYALARI**
G'oyimov Umar Eshmurodovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lif kafedrasini o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish funksiyalari ochib berilgan. Shu bilan birgalikda maqolada refleksivlikning bugungi kundagi ahamiyati keltirib o'tilgan. Dastlab maqolada refleksiyaning o'qituvchi faoliyatida bugungi kundagi o'rni, maqola so'ngida o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish funksiyalari haqida yavsiya berilgan. Maqola oxirida xulosa keltirilgan.

Kalit so'zlar

Refleksiya, ko'nikma, qobiliyat, jarayon, tasavvur, o'qituvchi, funksiya, mahorat, rivojlanish, tashkiliy, psixologik, pedagog, qobiliyat turi, fikrlash, ortga qaytish, talaba.

ФУНКЦИИ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ УМЕНИЙ

ПЕДАГОГОВ

АННОТАЦИЯ

В статье раскрываются функции организации процесса формирования рефлексивных умений у учителей сегодня. В то же время в статье говорится о важности рефлексивности сегодня. В начале статьи указана роль рефлексии в деятельности учителя сегодня, а в конце статьи - функция организации процесса формирования рефлексивных умений у учителей. Заключение приведено в конце статьи.

Ключевые слова

Рефлексия, умение, способность, процесс, воображение, учитель, функция, умение, развитие, организационное, психологическое, педагог, тип способностей, мышление, обратная связь, ученик.

**FUNCTIONS OF ORGANIZING THE PROCESS OF FORMING REFLEXIVE SKILLS IN
TEACHERS**

ANNOTATION

The article reveals the functions of organizing the process of forming reflexive skills in teachers today. At the same time, the article mentions the importance of reflexivity today. At the beginning of the article, the role of reflection in the teacher's work today is given, and at the end of the article, the function of organizing the process of forming reflexive skills in teachers is given. The conclusion is given at the end of the article.

Keywords

Reflection, skill, ability, process, imagination, teacher, function, skill, development, organizational, psychological, pedagogue, type of ability, thinking, feedback, student.

Jahonda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish oliy ta'lif muassasalari faoliyatining raqobatbardoshligini ta'minlash o'qituvchi va pedagog xodimlarning pedagogik qobiliyatni hamda mahoratini rivojlantirish, ularning o'zini-o'zi rivojlantirish va uzuksiz ravishda malakasini oshirish masalasiga dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, 2017-yil 27-iyuldagagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ta'lif va tarbiya uyg'unligini amalda ta'minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanimishini ta'minlash" [1] kabi muhim vazifalar keltirib o'tildi. Hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son qarori belgilangan vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchilarda refleksiv qobiliyatni shakllantirish muhim ekanligini taqozo etadi.

O'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish asosan ularning metakognitiv layoqatlarini rivojlantirish natijasida amalga oshiriladi. Chunki axborotlarni qayta ishslash bilan bir qatorda metakognitiv jarayonlarning ham mavjudligi amaliyatda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Metakognitiv jarayonlar axborotlarni qayta ishslashni tashkil etish va samarali boshqarishni ta'minlaydi. O'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda integral ruhiy jarayonlar maqsadlarni shakllantirish, rejalashtirish, natijalarni bashorat qilish, qarorlar qabul qilish shakllarida amalga oshiriladi. Intellektual refleksiya shaxsning o'z tafakkuri asoslarini tushunishi sifatida talqin etiladi. Shuning uchun ham u intellektual jihatdan o'z-o'zini boshqara olishning metakognitiv mexanizmi sifatida baholanadi.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING 4K MODELI BO‘YICHA KOMMUNIKATSIYA KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	
Jabborova Onaxon Mannapovna- Chirchiq davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	
Kamolova Fayyoza Kamol qizi-	
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4 bosqich talabasi.....	173
KREATIVLIKGA ЙЎНАЛТИРИЛГАН МАХСУС МАСАЛАЛАР ЁРДАМИДА ЎҚУВЧИЛАРДА КРЕАТИВЛИКНИ ШАКЛАНТИРИШ	
C.T.Сейтмуратов- докторант (PhD)Эжинияз атындағы Нөкис мәмлекеттік педагогикалық институты.Nukus, O‘zbekiston.....	175
O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA KREATIVLIKNING AHAMIYATI	
Samiyeva Dilbar Shukrullayevna-Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi.....	177
BOSHLANGICH TA`LIMDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TARBIYASINING AHAMIYATI	
Umarova Zuxra Abduraxmanovna- Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti v.b. Sapayeva Dilrabo Sotimboy qizi- Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.....	179
TARBIYAVIY ISHLAR AMALIYOTINI O‘RGANIB BORISH XUSUSIYATLARI	
Тожибоева Гульмира Рифовна- Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi Turapova Sevinch- CHDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim kunduzgi shakli 2- kurs talabasi.....	180
KELESHEKTE BOLAJAQ TARBIYASHÍLARDÍN KOGNITIV QABILETLERIN RAWAJLANDÍRÍWDÍN TIYKARGÍ TÚSINKLERI	
Bazarbaeva Ayjamal Qdirbaevna- Nizomiy atındaǵı Tashkent mámlekетlik universiteti erkin izleniwshisi.....	182
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TA’LIMNING KEYINGI TURLARIGA TAYYORLASH ZARURIYATI	
Usmanova Qumriniso Saidaliyevna- Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi. Chirchiq,O‘zbekiston.....	184
BO‘LAJAK MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARI O‘QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI OSHIRISH.	
Abdullayev Akbar Hikmatovich- NavDPI San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrası o‘qituvchisi. Boboniyozova Roziya Mirsalim qizi- NavDPI San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrası o‘qituvchisi. Jurayeva O‘g‘iloy Kengash qizi- Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi II kurs talabasi. Navoiy, O‘zbekiston.....	184
MATN ASOSIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KO‘NIKMALAR USTIDA ISHLASH	
H. Bakiyeva, Nizomiy nomidagi TDPU, Toshkent, O‘zbekiston. 187	
SHARQ MAMLAKATLARIDA VA SHARQLIKLAR FIKRIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBGA O‘RGATISH VA KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARINING YORITILISHI	
Ashirova Sojida Baxromovna- Shahrisabz davlat pedagogika instituti.Qarshi, O‘zbekiston.....	189
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA O‘RGATISH.	
M.A.Jumayeva- Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrası dotsenti Buxoro, O‘zbekiston.....	191
O‘QITUVCHILARDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI	
G‘oyimov Umar Eshmurodovich- Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrası o‘qituvchisi.....	194
ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	
Маратова Фариза Азаматовна- Преподаватель кафедры «Начальное образование» НавГПИ.....	196